

TARJIMA FAOLIYATINING MOHIYATI VA TURLARI: SINXRON, KETMA-KET VA YOZMA TARJIMA TALQINIDA ILMIY IZOHLAR

Solijonova Maloxatxon Akmaljonovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjimonlik fakulteti 1- bosqich talabasi

Tel: +998979290025, Email: solijonovamalohat00@gmail.com

Ilmiy rahbar: Ernazarova Nargiza Xidirovna

Ingliz tili amaliy tarjima kafedrasi katta o'qituvchisi

nargizaernazarova1111@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjima jarayonining nazariy asoslari, uning inson faoliyatidagi o'rni hamda og'zaki va yozma tarjimalarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Maqolada og'zaki tarjimaning asosiy turlari — sinxron tarjima, ketma-ket tarjima, shivirlab tarjima va vizual tarjimaning jarayon jihatlari, texnik talablari hamda kommunikativ funksiyalari o'rganiladi. Shuningdek, yozma tarjimaning ilmiy, rasmiy, badiiy va publitsistik uslublardagi ko'rinishlari ham yoritilib, har bir tur uchun tarjimon zimmasiga yuklanadigan mas'uliyat va talablar ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tarjima madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida baholanib, uning zamonaviy jamiyatdagi kommunikativ ahamiyati yuzasidan xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Tarjima, tarjima nazariyasi, sinxron tarjima, ketma-ket tarjima, shivirlab tarjima, vizual tarjima, yozma tarjima, ekvivalentlik, lingvistik jarayon, kommunikatsiya, tarjimon faoliyati.

Abstract: This article examines the theoretical foundations of translation, its role in human activity, and the distinctive features of oral and written translation. It analyzes the main forms of oral interpreting — simultaneous, consecutive, whispered, and sight interpreting — with attention to their processes, technical requirements, and

communicative functions. The paper also discusses written translation in scientific, official, literary, and journalistic styles, outlining the specific responsibilities and demands placed on translators. Furthermore, translation is assessed as a means of intercultural communication, and conclusions are drawn regarding its communicative importance in contemporary society.

Key words: Translation, translation theory, simultaneous interpreting, consecutive interpreting, whispered interpreting, sight translation, written translation, equivalence, a linguistic process, communication, the work of translator.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы перевода, его роль в деятельности человека, а также особенности устного и письменного перевода. Проанализированы основные виды устного перевода — синхронный, последовательный, шепотом и визуальный — с точки зрения процесса, технических требований и коммуникативных функций. Рассмотрены формы письменного перевода в научном, официальном, художественном и публицистическом стилях, обозначена ответственность и требования к переводчику. Перевод оценивается как средство межкультурной коммуникации, сделаны выводы о его значении в современном обществе.

Ключевые слова: Перевод, теория перевода, синхронный перевод, последовательный перевод, шепотный перевод, визуальный перевод, письменный перевод, эквивалентность, лингвистический процесс, коммуникация, деятельность переводчика.

G'. Salomov o'zining "Tarjima nazariyasiga kirish" asarida tarjimaga quyidagicha izoh beradi: "Tarjimaning bosh xossasi uning boshqa til vositalari bilan qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayon, so'z san'ati ekanligidadir". Q. Musayevning fikriga ko'ra, insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo'lmish tarjima – bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani (matnni), uning shakli va mazmun birligini saqlagan holda,

o'zga til vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir.¹ I.G'afurov esa "So'zlovchi nutqi, muallifning asari, turli hujjatlar va ma'lumotlarni bir tildan ikkinchi tilga o'girish yoki o'tkazish, boshqa tilga ularni tushunarli qilish tarjima deb ataladi",² deb ta'kidlaydi. J.Katfordning fikricha esa "Tarjima bir tildagi matn materialini boshqa tildagi matn materialining ekvivalenti bilan almashtirishdir".³ Demak, olimlarning tarjimaga bergan tavsif va ta'riflariga yondashgan holda tarjimaga quyidagicha izoh berish mumkin : tarjima asliyat matnidagi o'gzaki yoki yozma manbani mazmunini, tuzilishini saqlagan holda tarjima tiliga olib o'tishdir.

Ma'lumki har qanday til og'zaki va yozma nutqda ifodalanadi. Tarjima shakliga ko'ra, *yo'zma tarjima* hamda *og'zaki tarjima* ga bo'linadi.

Og'zaki tarjima. Og'zaki tarjima yozma tarjima turidan keskin farq qiladi. Negaki, bu jarayon ko'proq mas'uliyat talab qiladi va bir qancha qiyinchiliklarga ega, shuningdek, og'zaki tarjimada mazmunni to'liq yetkazib berish zarur. Ingliz tilida og'zaki tarjimon "interpreter", yozma tarjimon esa "translator" deyiladi. O'zbek tilida esa har ikkisiga ham tarjimon deb murojaat qilinadi.

Ba'zi insonlarning fikricha, og'zaki tarjima bu shunchaki bir inson nutqining so'zma-so'z tarjimasi. Aslini olganda esa tarjimaning bu turi yuqori darajadagi bilim va tajriba talab qiladigan murakkab jarayon hisoblanadi. Tarjimonning ikki tilda ravon so'zlasha olishigina yetarli emas, shuningdek, u jargonlarni va madaniy tushunchalarni tushuna olishi hamda ma'noni ifodalashda ovoz toni qanday ekanligini bilishi muhim sanaladi, aks holda so'zlovchilar o'rtasida jiddiy tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin.

Yevropada og'zaki va yozma tarjimonlarni bog'lab turuvchi Xalqaro tashkilotlar mavjud: I.F.T (the International Federation of Translations) – Xalqaro

¹ Q. Musayev. Tarjima nazariyasi asoslari. "Fan" nashriyoti. Toshkent, 2005-yil. 8-bet

² G'afurov I. Tarjimon mutaxassisligiga kirish. – T.: Mehridaryo, 2008. – B.5.

³ Catford J. A Linguistic Theory of Translation. – London: OUP, 1965. – P.20

yozma tarjimonlar federatsiyasi hamda I.A.C.I (the International Association of Conference Interpreters) – Og’zaki tarjimonlar xalqaro assotsatsiyasi.

Og’zaki tarjimonlar xalqaro assotsatsiyasiga 1953-yilda asos solingan bo’lib, u o’zining ish sifati va axloqiy me’yorlar bo’yicha yuqori talablariga ega. Bu tashkilotga a’zo bo’lmoqchi bo’lgan da’vogarlar esa besh yildan buyon shu tashkilot a’zosi bo’lgan tarjimonlar tomonidan qo’llab-quvvatlanishi lozim. Tashkilotning maqsadi tarjimonlarni ularga mos keladigan mehnat sharoitlari bilan ta’minlash hamda boshqa insonlarning og’zaki tarjimonlar haqidagi qarash va tushunchalarini yanada oshirishdan iborat. Bugungi kunga kelib, og’zaki tarjimonlar xalqaro assotsatsiyasi 100 dan ortiq mamlakatda 3,000 dan ziyod a’zoga ega.

Og’zaki tarjima turlari. Og’zaki tarjima o’z navbatida bir necha turlarga bo’linadi:

Sinxron tarjima. Sinxron tarjima - og’zaki tarjimaning eng qiyin hamda muhim turlaridan bir hisoblanib, unda tarjimon ketma-ket tarjimadan farqli o’laroq aslyat tilidagi notiq nutqini bir vaqtning o’zida tarjima tiliga tarjima qila borishi tushuniladi. Sinxron tarzda tarjimani olib boruvchilar **sinxron tarjimon** yoxud **sinxronist** deyiladi.

Aslini olganda, sinxron tarjima XX asrga kelibgina qo’llanila boshlandi. Sinxron tarjima birinchi marta 1919-yil Parijdagi tinchlik konferensiyasida qo’llangan. SSSR da sinxron tarjimadan ilk bor 1926-yilda foydalanilgan.

Sinxron tarjima amaliyoti maxsus uskunalar yordamida amalga oshiriladi. Bu tarjima usulida tarjimondan juda katta ruhiy va jismoniy kuch talab qilinadi. Shu sababdan sinxron tarjimonlar 20-30 daqiqa ishlab boshqa tarjimonlar bilan o’rin almashadi.

Ketma-ket tarjima. Ketma-ket tarjimada tarjimon so’zlovchi nutqining biror bir qismini nutq tugaganidan so’ng tarjam qiladi. Ya’ni so’zlovchi nutqini tugatadi, orada kichik pauza, so’ng tarjimon uning nutqini tarjima qiladi. Bu orada tarjimon zarur bo’lsa kerakli so’zlarni va jummalarni yozib olishi mumkin va bundan

tashqari mazmunni to'la, xatolarsiz yetkazishi uchun eslab qolish qobiliyati ham kuchli bo'lishi talab etiladi.

Shivirlab tarjima qilish. Tarjimaning yana bir bu turida, tarjimon retseptor yonida turib yoki o'tirib, past ovozda shivirlab notiqning nutqini tarjima qiladi. Ushbu turdagi tarjima qiyin deb hisoblanadi, chunki u vokal kordlariga bosim o'tkazadi. Shivirlab tarjima qilishda tarjimon faqat bir kishiga axborotni yetkazadi. Sinxron va ketma-ket tarjimada barcha anjuman ishtirokchilari tarjimonning tarjima nutqini eshitishi mumkin.

Vizual tarjima. Vizual tarjima qilish bir tilda yozilgan matnni boshqa tilga o'girib o'qishga aytiladi. Vizual tarjima qilish ehtiyotkorlik bilan bajarilishi kerak. Shunindek, berilgan matndan chiqib ketmayotganligiga ishonch hosil qilish kerak. Bu tarjima turida tarjimon matndagi texnik terminlarni ko'rib chiqa olish va o'zi mutaxassis bo'lmagan sohadagi terminlarni tarjima qila olishga tayyorgarlik ko'rish imkoni bo'ladi. Qiyin so'zlarning talaffuzini ko'rib olish mumkin. Bundan tashqari bu bo'limda tarjimonlar nafaqat matn bilan, balki grafiklar, diagrammalar va xaritalar bilan ham ishlaydi.

Yozma tarjima. Yozma tarjima deganda, har qanday matn (og'zaki yoki yozma material) ning yozma shakldagi tarjimasi tushuniladi. Yozma tarjimada kommunikant "matn" hisoblanadi, shuning uchun tarjimonning diqqat markazida tarjima qilinadigan matn turadi va tarjima sifatiga faqat tarjima tugaganidan keyin baho beriladi. Tarjimashunos olim A.F.Fyodorov yozma tarjimaning quyidagi ko'rinishlarini ko'rsatib o'tadi:

1. Gazeta xabarlari, rasmiy hujjat va maxsus ilmiy matnlar tarjimasi;
2. Ommaviy-siyosiy hamda publitsistik asarlar tarjimasi;
3. Badiiy asar tarjimasi.

Yozma tarjima odatda matnning uslub jihatidan turiga bo'linadi va ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: rasmiy-idoraviy, badiiy, publitsistik, ilmiy va

so'zlashuv. Ular ham o'z navbatida har bir uslubdagi matnlarning kichik turlariga, ya'ni sohaviy turlariga bo'linishi mumkin.

Tarjimon yozma tarjimada ham og'zaki tarjima kabi bir qator qiyinchiliklarga duch keladi; so'zlarning ko'p ma'noliligi, hissiyotlarni manba tilida tasvirlangandek tarjima tiliga olib o'tilishi, so'z tartibi va ularning grammatik tuzilishi hamda har bir sohaga oid bo'lgan turli atamalar. Bu kabi qiyinchiliklarga duch kelmaslik yoki bartaraf etish uchun tarjimon judayam e'tiborli bo'lishi talab etiladi. Aytaylik, tarjimon gapda ko'p ma'noli so'zga duch keldi, bu yerda u gap kontekstiga eng yaqin ma'noni oladi, iboralar va maqollarda ularga mos bo'lgan ekvivalentni tanlaydi.

Xulosa qilib aytganda, tarjima – ikki xalq, madaniyat va til o'rasidagi ko'prik vazifasini bajaradi. Tarjimon tarjimaning qaysi turini tanlamasin, xoh og'zaki, xoh yozma o'ziga yarasha qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy. Bu qiyinchiliklarni yengib o'tish hamisha o'z ustida ishlab, ko'proq amaliyot qilishi zarur. Ayniqsa, og'zaki tarjimaning sinxron tarjima hamda shivirlab tarjima qilish bo'limlari o'ziga yarasha mas'uliyat, kuch talab qiladi. Shuningdek, yozma tarjimada ham ehtiyotkor bo'lish lozim. Uning uslubi hamda turidan kelib shu sohaga oid mazmunni to'liq yetkazib berishi kerak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.U.R.Yo'ldoshev. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: “ Samarqand davlat chet tillari instituti” nashriyoti, 2021 [1, 7-8];
- 2.<https://translationsandinterpretations.com.au/blog/the-challenges-difficulties-interpreters-face/>;
- 3.https://en.wikipedia.org/wiki/International_Association_of_Conference_Interpreters. – 2025-yil 31-yanvar oxirgi tahrir;
- 4.[https://oriens.uz/media/conferencearticles/59. Munisa ERKINOVA 361-367.pdf](https://oriens.uz/media/conferencearticles/59_Munisa_ERKINOVA_361-367.pdf) [2, 362];
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sinxron_tarjima. – 2025-yil 2-iyun oxirgi tahrir;
- 6.<https://www.ijaret.com/wp-content/themes/felicity/issues/vol6issue2/mohamed-ali.pdf>. – June 2019, April. “ International Journal of Advanced Research in Education & Technology;
- 7.Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti: darslik-majmua. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2016.[5,24].